

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«KELISHILDI»
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**



« » 2020-y.



« » 2020-y.

110000 – Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi negizidagi:

5A110901 – Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha)

5A110902 – Pedagogika va psixologiya

5A110903 – Ta'lim muassasalarining boshqaruvi

5A110904 – Testologiya va pedagogik o'lchovlarni baholash

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus
(ixtisoslik) fanlaridan**

DASTUR

Toshkent – 2020-y.

Annotatsiya

Dastur 5A110902 – Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5110900 Pedagogika va psixologiya: ta'lim yo'nalishining 2016/2017 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

N.I.Xalilova – TDPU «Psixologiya» kafedrası mudiri, ps.f.n., dotsent.

M.E.Axmedova. – TDPU «Pedagogika» kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent.

Dastur Pedagogika va psixologiya fakultetining 2020 yil 30 iyundagi № 12-sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

5110900 - Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi pedagogika sohasidagi yo'nalish bo'lib, ta'lim muassasalaridagi psixologik muxitni barkerorlashtirishning usullarini, shaxs psixikasini diagnostikasi, korreksiyasi va profilaktikasi, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, o'qitish metodikasi, loyihalashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalari, ta'limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi – talabalarni pedagogika va psixologiyaning tarmoqlari, sohaslariga doir bilimlarini kengaytirish, ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil qilishni psixologik-pedagogik asoslari, amaliyotchi psixolog funksiyasi va vazifalarini tashkillashtirish, o'qitishning axborot, pedagogik va innovatsion texnologiyalarini mazunini anglash hamda o'qitish tizimiga tatbiq qilish ko'nikmasi, shaxsni o'rganishga qaratilgan psixodiagnostika, psixologik xizmat, psixologik korreksiya, psixologik maslahat kabi yo'nalishlar bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarini oshirish va ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5110900 Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A110902 – Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 5 ta 5 ta umumkasbiy fanlar bo'yicha: “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik mahorat”, “Umumiy psixologiya”, “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya”, “Ijtimoiy psixologiya” va 1 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: “Pedagogik texnologiya” test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

UMUMIY PSIXOLOGIYA fani bo'yicha:

Kasblar va professionalizm mutaxassislikka kirish fanining asosiy tushunchasi sifatida. Kasb va professionalizm haqida, kasb haqida umumiy tasavvur, mutaxassis va havaskorlar psixologiya xususida, psixolog kasbini shakllanish tarixi. Malakali psixolog nazariyotchi va amaliyotchi sifatida. Amaliy psixologiya haqida umumiy tasavvur, psixologik yordam, psixologik himoya va psixologik yo'naltirish, amaliy psixologiyaning asosiy bo'limlari va tuzilishi, psixoprofilaktik ishlarning muhim vaziflari, psixodiagnostika amaliy psixolog faoliyatining yo'nalishi sifatida, psixokorreksiya haqida umumiy tushuncha, psixokorreksiyaning metod va usullariga umumiy tavsif, psixologik maslahatning nazariy va metodologik asoslari, psixologik maslahatning nazariy va metodologik asoslari, psixologik maslahatning metod va turlari, amaliyotchi psixolog ishining shakllari, psixolog ishining individual va guruhshakllarining qiyosiy tahlili, psixologik trening amaliyotchi psixologning metodi sifatida. Amaliyotchi psixologning faoliyat sohalari. Xalq ta'limi bo'g'inida psixologik xizmatning asosiy muammolari va vazifalari, oilaga psixologik yordam, oilalar bilan psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarning o'ziga xosligi. Amaliyotchi psixolog

faoliyatining umumiy masalalari. Amaliyotchi psixolog faoliyati samaradorligini baholash muammosi, amaliyotchi psixolog shaxsiga qo'yiladigan muhim talablar, amaliyotchi psixolog faoliyatida o'z-o'ziga yordam muammosi, amaliyotchi psixolog ijodkor sifatida. Psixologning kasbiy o'zini o'zi anglashning axloqiy jihatlari. Psixologiyada etnik muammolarni qayta ko'rib chiqish darajasi va asosiy variantlari, psixologiyaning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining etnik muammosi, amaliyotchi psixologning "qiziqtiradigan" va asosiy etnik muammolari, psixolog faoliyatining muhim etnik tamoyillari, psixolog faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar muammosi, psixolog-amaliyotchining muhim etnik yo'nalishi.

Umumiy psixologiya fanining predmeti, vazifalari, metodlari. Shaxsni o'rganishning metodologik asoslari. Inson va insoniyat haqidagi fan. Psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Psixologiya fanining tamoyillari. Psixologiyaning asosiy metodlari. Psixologiya zamonaviy fanlar tizimida. Ruh va ong haqidagi antik davr va o'rta asrlardagi qarashlari. Introspeksiya metodi va o'zini o'zi kuzatish muammosi. Bixeviorizm xulq-atvor haqidagi fan. Psixikaning rivojlanish tarixi. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Psixologiyaning sohalari. Psixika va uning evolyusiyasi. Psixika haqida tushuncha. Hayvon psixikasining rivojlanishi. Ong va uning taraqqiyoti. Ong haqida tushuncha, inson psixikasini rivojlanishining tarixiy-madaniy konsepsiyasi. Inson psixikasining rivojlanishi. Inson psixikasining fiziologik asosi. Ongsizlik muammosi. Faoliyatning psixologik tavsifi. Faoliyatning psixologik nazariyalari. Faoliyatning operatsional-texnik jihatlari. Harakatlar fiziologiyasi va faollik fiziologiyasi. Shaxs haqida tushuncha. Shaxs borasida biogenetik va sotsiogenetik nazariya. Shaxs shakllanishi va rivojlanishi. Shaxs nazariyalari. Diqqatning haqida tushuncha. Diqqat turlari. Diqqat xususiyatlari. Diqqatning rivojlanishi. Sezgi haqida tushuncha. Sezgi turlari. Sezgining xususiyatlari va tavsifi. Sensor adaptatsiya va sezgilarning o'zaro ta'siri. Sezgining rivojlanishi. Idrokning umumiy tavsifnomasi. Idrokning nerv-fiziologik asosi. Idrok xususiyatlari va turlari. Idrokning individual farqlari va uning rivojlanishi. Idrokda predmet va fon. Fazoni, vaqtni, harakatni idrok qilish. Xotira haqida tushuncha va tavsifi. Xotira turlari. Xotira jarayonlari va mexanizmlari. Xotiradagi individual farqlar va rivojlanishi. Xayol haqida tushuncha va uning inson psixik faoliyatidagi roli. Xayol turlari. Xayoliy obrazlarni qayta ishlash mexanizmlari. Xayolning individual farqlar va rivojlanishi. Xayol va ijod. Tafakkur tabiat va uning turlari. Tafakkur shakllari. Tafakkurni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv. Aqliy operatsiyalarning asosiy turlari. Murakkab mantiqiy masalalarni yechish va ijodiy tafakkur. Tafakkurning rivojlanishi. Nutq haqida tushuncha. Nutqning fiziologik asoslari. Nutqni o'rganishga nazariy yondashuv. Nutqning turlari. Nutqning rivojlanishi. Irodaviy harakatlar haqida tushuncha. Iroda borasidagi psixologik nazariyalar. Irodaviy harakatlarning fiziologik motivatsion asoslari. Irodaviy harakat tuzilishi va rivojlanishi. Hissiyotning umumiy tavsif va uning turlari. Hissiyotning fiziologik asosi va psixologik nazariyalari. Hissiyotning rivojlanishi va inson hayotidagi o'rni. Shaxs yo'nalganligi va faoliyat motivi haqida tushuncha. Motivatsiya haqidagi nazariyalar. Motivatsion soha rivojlanishining asosiy qonuniyatlari. Qobiliyat haqida tushuncha. Qobiliyat rivojlanishi va individual

farqlar. Inson qobiliyatining biologik asoslari. Qobiliyatning rivojlanishi. Temperament haqida tushuncha. Temperament haqidagi ta'limotlarning qisqacha mazmuni. Temperamentga psixologik tavsif va inson faoliyati. Xarakter haqida tushuncha. Xarakterni o'rganishga nazariy va empirik yondashuv. Xarakterning shakllanishi.

RIVOJLANISH PSIXOLOGIYA. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA **fani bo'yicha:**

Rivojlanish psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari. Rivojlanish psixologiyasining asosiy tushunchalari va muammolari. Rivojlanish psixologiyasining tadqiqot metodlari. Rivojlanish tamoyillari. A.Bining intellektual rivojlanish testi. Byullerning rivojlanishni uch darajasi nazariyasi. Intellektual rivojlanishning zamonaviy nazariyalari. Piaje konsepsiyasi: sensomotor bosqich, operatsiyalardan oldingi bosqich va aniq operatsiyalar, formal operatsiyalar davri. J.Piaje nazariyasidagi asosiy holatlarga tanqidiy yondashuv. E.Eriksonning ego-psixologiyasi, E.Erikson ishlarining tadqiqot metodlari, E.Erikson nazariyasining asosiy tushunchalari, shaxs rivojlanishini psixosjtimoiy bosqichlari. O'zini o'zi anglashni rivojlanishi va "Men" konsepsiyasi. A.Tomas va S.Chesslarning bola temperamenti va konsepsiyasi. Bolalik giperaktivligi muammosi. Ota-ona munosabatlari va muloqot. Xarlo tadqiqotlari. Boulbi bo'yicha yaqinlik tuyg'usi nazariyasi. Eysvortning tajribalari. Kattalarga yaqinlik tuyg'usi. Ota-onalik tarbiyasining uslublari. Pedagog bilan muloqot va o'zaro harakatlar. Bixeviorizm nazariyasi: tarixi va rivojlanishi. Dj.Uotsonning bixevioristik nazariyasi, Operant o'rganish, B.Skinnerning radikal bixeviorizmi. Ijtimoiylashuv ijtimoiy o'rganish kontsepsiyasining markaziy muammosi sifatida, ijtimoiy o'rganishning evolyusion nazariyasi, bola rivojlanishini o'rganishning didaktik tamoyillari, bola shaxsini psixologik tabiati haqidagi qarashlarning o'zgarishi, ijtimoiy madaniy yo'nalish. Oliy psixik funksiyalarni namoyon bo'lishi va rivojlanishi, inson psixik rivojlanishining o'ziga xos muammolari, shaxs psixik rivojlanishini tadqiq qilishning adekvat metodlari muammosi, "ta'lim" va "rivojlanish" muammosi, psixik rivojlanishni tadqiq qilishning ikki paradigmasi. Yosh bosqichlarini namoyon bo'lishining tarixiy muammosi, bolalik tarixiy-madaniy fenomen sifatida L.S.Vigotskiy ishlarida bola rivojlanishini davrlashtirish muammosi va "psixologik yosh kategoriyasi", D.B.Elkonin bo'yicha rivojlanishini davrlashtirish va yosh dinamikasi haqidagi tasavvurlar, psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosini hal qilishning hozirgi zamon an'analari. Chaqaloqlik davri psixologiyasi (0-2 oylik) inqirozli davr sifatida go'daklik davri, stabil rivojlanishi bosqich, nutq va muloqot rivojlanishi, idrok va intellektni rivojlanishi, predmetlar bilan harakat va harakat funksiyalarini rivojlanishi, hayotining birinchi yilida psixik rivojlanish va ta'limning muvofiq, go'daklik davrini psixologik yangiligi, bir yoshdagi inqiroz. Ilk bolalik davrida bola rivojlanishining ijtimoiy shart-sharoitlari va kattalar bilan muloqot, predmetli faoliyatni rivojlanishi, yangi faoliyat turlarini rivojlanishi, bolada bilish jarayonlarini rivojlanishi, nutqning rivojlanishi, ilk bolalik davrida psixik rivojlanishga rahbarlik qilishning yangi yo'nalishlari, ilk bolalik davrida shaxs rivojlanishi, uch yoshdagi inqiroz.

Maktabgacha tarbiya yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari, o'yin maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi faoliyat sifatida, faoliyat turlari, bilish jarayonlarini rivojlanishi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot, asosiy psixologik yangilik, maktabgacha tarbiya yoshidagi inqirozning tavsifnomasi. Maktab ta'limiga psixologik psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari, maktabga moslashish, kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangilik, o'smirlik davriga o'tishdagi inqiroz. Rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari, o'smirlik davrida yetakchi faoliyat, o'smir psixikasi va xulq-atvorini o'ziga xos xususiyatlari, kattalar bilan muloqotning xususiyatlari, o'smirlik davrida psixologik yangilik, shaxs rivojlanishi va o'spirinlik davriga o'tishdagi inqiroz. O'smirlik davrida refleksiyaning rivojlanishi. O'spirinlik psixologik yosh sifatida rivojlanishining ijtimoiy shart-sharoiti, o'spirinlik davrida yetakchilik faoliyat, o'spirinlik davrida intellektual rivojlanish, shaxs rivojlanishi, o'spirinlik davrida muloqot. O'spirinlik davrida refleksiyaning rivojlanishi. Kattalik psixologik bosqich sifatida, kattalikni davrlashtirish muammosi, yetuklik davrining yetakchi faoliyat va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoiti, kattalik davrida shaxs rivojlanishi, kattalik davrining me'yoriy inqirozlari, kattalik davrida psixofiziologik va bilish jarayonlarini rivojlanishi. Keksalik bioijtimoiy hodisa sifatida. Gerontopsixologiya muammolariga doir dolzarb tadqiqotlar, keksayish va keksalik nazariyalari, keksalikni yosh chegaralari muammosi, keksalik davrida shaxsiy inqiroz va yoshning psixologik vazifalari, keksalik davrida yetakchi faoliyat va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoiti, keksalik davrining shaxsiy xususiyatlari, keksayish davrida bilish jarayonlari.

Pedagogik psixologiya fanining rivojlanish tarixi, pedagogik psixologiya fanining tamoyillari va metodlari. Jamiyatning daslabki rivojlanishi bosqichlarida bola shaxsiga munosabat xususiyatlari, ta'lim jarayonini tuzish uchun asos sifatida inson haqidagi falsafiy-psixologik tasavvurlar, pedagogik jarayon kontsepsiyalari va uning psixologik asoslari, hozirgi zamon ta'limi: kognitiv-orinetirovkadan shaxsiy orientirovkali ta'lim paradigmalari. O'quv faoliyati, o'quv motivlari, rivojlanuvchi ta'limning psixologik asoslari, dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnikasi va usullari, kompyuterlashtirilgan ta'limning psixologik jihatlari. Tarbiyaviy texnologiyalarning psixologik aspektlari, turli yosh bosqichlarida tarbiya xususiyatlari, shaxs shakllanishiga oilaning ta'siri, shaxs tarbiyasida madaniyat. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni, pedagogik muloqot, pedagogik o'zaro harakatlar psixologiyasi, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik faoliyatning individual uslubi, pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli, pedagogik jamoa psixologiyasi.

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA fani bo'yicha:

Ijtimoiy psixologiya fanining predmeti va vazifalari. Ijtimoiy psixologiya – odamlarning jamiyatda hamkorlikdagi ish faoliyatlari jarayoni davomida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fan ekanligi. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida navqiron, lekin ijtimoiy psixologik tafakkurning

mavjudligi nuqtai nazaridan o'ta qadimiy fan ekanligi. Ijtimoiy psixologiyaning eksperimental fan sifatida Xorij va O'zbekistonda rivojlanishi. Ijtimoiy psixologiyada qo'llaniladigan metodlarning o'zga psixologiya yo'nalishlaridan farqi. Shaxsni guruh sharoitida va guruhlararo munosabatlar tizimida o'rganish - ijtimoiy psixologiyaning asosiy maqsadi ekanligi. Muloqot – shaxslararo munosabatlarning asosiy ehtiyoji sifatida uning ijtimoiy mohiyati. Muloqotning shaxs hayotida – uning rivojlanishi va shakllanishida tutgan o'rni. G.M.Andreeva asarlarida muloqotning ijtimoiy psixologik tizimiga oid qarashlar. Muloqot shaxslararo axborotlar almashinuvi, kommunikatsiya sifatida. Interaktiv muloqotning ijtimoiy psixologik mohiyati. Shaxsning turli ijtimoiy rollarni bajarish jaryonida o'ziga o'xshash shaxslarga ta'sir ko'rsata olishini ta'minlovchi mexanizmlar.

Muloqot va persepsiya muammosi. Ijtimoiy persepsiyaning psixologik mexanizmlari – identifikatsiya, refleksiya va stereotipizatsiya fenomenlari. Muloqot jarayonida nizolarning kelib chiqish sabablari. Nizo – taraqqiyotga turtki bo'luvchi omil sifatida. Shaxslararo o'zaro muloqotda ziddiyatlarning paydo bo'lish ehtimoli: konstruktiv va destruktiv nizolar haqida tushuncha. Nizolarning shaxslararo muloqot jarayonida, ishlab chiqarish va ta'lim-tarbiya jarayonida kelib chiqish shart-sharoitlari. Ijtimoiy psixologiyada guruh – asosiy o'rganish ob'ektlaridan biri ekanligi. Guruhlarning klassifikatsiyasi: katta va kichik guruhlar.

Etnik guruhlar - katta ijtimoiy guruhlarning bir toifasi ekanligi. Etnopsixologiya – ayrim olingan millatlar psixologiyasidan tashqari, turli xalqlar, kichik milliy guruhlar psixologiyasini turli madaniy-tarixiy muhitlarda o'rganuvchi fan tarmog'i sifatida. Kichik guruhlarning shaxs rivojlanishida tutgan o'rni. Kichik guruhlardagi ijtimoiy psixologik fenomenlar to'g'risida. Kichik guruhlarning klassifikatsiyasi: rasmiy va norasmiy guruhlar, birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Referent guruh tushunchasi. Boshqaruv psixologiyasini o'rganish – davr talabi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlarida boshqaruv haqidagi fikrlarning yoritilishi. Boshqaruv haqida xorij psixologiyasidagi nazariyalar. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhiting roli. Shaxs hayotida ijtimoiy nazorat shakllarining o'rni. Ijtimoiy norma va uning shaxsga singdirilishi. Ijtimoiy normalarga amal qilish – shaxs va jamiyat munosabatlaridagi muhim jihati sifatida. Shaxsning ijtimoiylashuvi tushunchasi. E.Frommning shaxs ijtimoiylashuvi mexanizmlari haqidagi nazariyasi. Ijtimoiylashuv maskanlari. Ustanovka tushunchasi. Shaxs ustanovkalari – shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar jarayonida muhim omillardan biri ekanligi. Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligining namoyon bo'lishi. Agressiya – bu shaxsning kimgadir ziyon etkazish maqsadida verbal yoki jismoniy zarar etkazishi ekanligi. Shaxs va uning egoizmi. Egoizm – bu shaxsning boshqalar manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'yishi bilan bog'liq bo'lgan shaxs xususiyati ekanligi. Konfliktologiya fanining predmeti va ob'ekti, maqsad va vazifalari. Konfliktologiya borasidagi g'oyalarini shakllanishi, konfliktologiya fanining rivojlanishi. Konflikt borasidagi tadqiqotlarning metodologik asoslari va tamoyillari. Konfliktologiyada psixologik metodlarni qo'llanilishi. Shaxsiy konfliktlar. Shaxslararo konfliktlar. Guruhlararo konfliktlar. Guruh ichidagi konfliktlar. Davlatlararo konfliktlar. Konfliktlarni

vujudga kelish sabablari. Konfliktlarni vujudga kelishining ob'ektiv sabablari. Konfliktlarni boshqarish tajribalari. Konfliktlarni o'rganishdan ularni hal etishga o'tish. Konfliktlarni boshqarish amaliyotining boshlanishi. Konfliktlarni boshqarishning asosiy tushunchalari. Asosiy usullar. Psixoterapiya: insonning o'z-o'zi bilan dialogi. Konflikt bilan ishlashda psixoanalitik ish. Xulq-atvor psixoterapiyasi. Konfliktlar bilan ishlashda gumanistik yo'nalish. Psixologik maslahat. Guruhiy psixoterapiya. Mijoz va psixologning o'azro ta'siri.

PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA TARIXI fani bo'yicha:

Pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalari. Pedagogik fanlarning tuzilishi va tizimi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlariga tavsif. Shaxs haqida tushuncha. Shaxs rivojlanishi va uning omillari. Pedagogik jarayon yaxlit hodisa sifatida. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayoni mohiyati. Sharq va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari ta'lim jarayoni asosi sifatida. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Sharq mutafakkirlari ta'lim metodlari haqida. Ta'lim turlari. Ta'limni tashkil etish shakllari, turlari haqida tushuncha. Dars turlari va tuzilishi. Tarbiya jarayonining turlari va tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya metodlari mohiyati va uning tasnifi. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Islom dinining tarqalishi va uning ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablari va unda ta'lim-tarbiya mazmuni. Sharq uyg'onish davri IX-XII asrlar Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Ibn Sino asrlari va unda ta'lim-tarbiya masalalari. Sharq uyg'onish davri XIV-XV asrlar Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Mirzo Ulug'bek, Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va insonparvarlik masalalari, pedagogik qarashlari. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni. Munis Xorazmiyning "Savodi ta'lim" asari – husnixatga doir dastlabki qo'llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qoshg'ariyning "Odob as-solihin" asari – yuksak ma'naviy-axloqiy sifatarni yorituvchi manba. XIX asrning II-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta'lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi va jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma'rifatparvarlik xizmatlari. 1941-1945 yillarda Xalq maorifi sohasida maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalari yaratish, ta'lim-tarbiya jarayonini mustabid tuzum maqsadiga muvofiq tashkil etilishi va uning salbiy oqibatlari. Mustaqillik davrida vujudga kelgan pedagogik yondashuvlar. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Ta'lim modellari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendensiyalar. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA fani bo'yicha:

“Pedagogik texnologiya” pedagogikaning mustaqil sohasi sifatida. Pedagogik texnologiyalarning rivoji. Pedagogik texnologiyalarning aspektlari va darajalari, turlari. Pedagogik texnologiyalarning tarixiy rivojlanish bosqichlari. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi shaxsi. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchi shaxsi. Pedagogik texnologiyalar tasnifi. Maqsadni belgilash ta’limni texnologiyalashtirishning asosiy elementi. O’qitishni texnologiyalashtirishda metod va vositalar. Ta’limning “Keys-stadi” texnologiyasi. Ta’limning shaxsga yo’naltirilgan texnologiyasi. Ta’limning “Loyiha” texnologiyasi. O’quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish asosidagi pedagogik texnologiya. Texnologiyalashtirish. An’anaviy, rivojlantiruvchi va innovatsion ta’lim. Pedagogik tizim pedagogik texnologiyaning asosi Pedagogik texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslari.

PEDAGOGIK MAHORAT fani bo'yicha:

Pedagogik mahorat haqida tushuncha va uning o’qituvchi faoliyatida tutgan o’rni. O’qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning turlari. O’qituvchining kommunikativ qobiliyati. Pedagogik muloqot – o’qituvchining ijodiy faoliyati sifatida. O’qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi. Pedagogik nazokat va odob-axloq. Pedagogik texnika haqida tushuncha, pedagogik texnikani shakllantirish uslublari. Nutq texnikasi va notiqlik ma’daniyati. O’qituvchining ta’lim jarayonidagi mahorati. Pedagogik mahorat nazariyasi va amaliyoti. O’qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati. O’qituvchining tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishida pedagogik mahorati. O’qituvchi pedagogik faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nazariyasi. O’qituvchi pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning o’rni. O’qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish. Pedagogik fikrlarning retro tahlili.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курамиз. “Ўзбекистон”, 2017.
2. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017йил, 6-сон, 70-модда.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.
4. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
5. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008 yil
6. G'oziyev E. G'. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.
7. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiy psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil
8. Климов Е.А. «Общая психология». Речь, Москва-2001

9. Штерн А.С. «Введение в психологию» М.: Академия Спб 2002.
10. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Тошкент, Noshir., Т 2010.
11. Do‘stmuhammedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” Toshkent Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013.
12. Davletshin M.G. va boshqalar «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» Т. TDPU, 2004 yil.
13. Абрамова.Г.С. «Возрастная психология»: Учебное пособие для студентов вузов.-М., “Изд-во” 2001.- 621с.
14. Криско В.Г. «Психология и педагогика» М.: Харвест – АСТ 2000.
15. Зимняя.И.А «Педагогическая психология»: Учебник для вузов. –М., “Изд-во” 2002.-384с.
16. Реан А.А., Бордовская.Н, Розум.С «Психология и педагогика» СПб.: Питер 2007.
17. Андреева Г.М. “Социальная психология”. СП. 2002.
18. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. М.: 2000
19. Бергер П., Лукман Т. Социальное консультирование реальности. М.: “МГУ” – 1995.
20. Гришина Н.В. Психология конфликта. М.: 2008
21. Ismoilova N., Abdullaeva D. Ijtimoiy psixologiya. Т.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati – 2013
22. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Т. “Fan va texnologiya” – 2010
23. Конфликтология / Под ред. А. С. Кармина // СПб.: Издательство «Лан», 1999.
24. Леонов Н.И. Конфликтология. Москва – Воронеж, 2006
25. Махсудова М. Muloqot psixologiyasi. Т. “Turon-Iqbol” – 2006
26. Соколов С.В. Социальная конфликтология: – М.: Юнити-дана, 2001.
27. Сухова А.Н. Прикладная социальная психология. М. “МОДЕЖ”-1998
28. Pedagogika darslik M. Toxtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida. Т.: O‘zbekis-ton faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
29. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – Т.: “A.Navoiyn omidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.
30. Xo‘shimov K., S.Ochil. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув кўлл.
31. I-жилд. – Т.: Ўқитувчи, 2010.
32. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
33. Xasanbоев Ж, Тўракулов Х., Хайдаров М., Хасанбоева О. Педагогика фанидан изохла лугат. – Т., 2008.
34. Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – Т.: NOSHIR, 2011.
35. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi. -Т.: Tafakkur bo‘stoni, 2011
36. Маънавийт юлдузлари (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар). - Т., 1999.
37. Слостенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика (Учебное пособия). – М., 2003.

38. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. (Учебное пособия). – М., 2003.
39. Латышина Д.И. История педагогики. (Учебное пособие). – М., 2003.
40. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogic mahorat. Darslik. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2005.
41. Ochilov Malla. Muallim qalb me`mori. – T.: O`qituvchi, 2000.
42. Tolipov O`.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. 2006. -261 b.